

ZAMONAVIY TA'LIM VA PEDAGOGIKA: RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI

Ro'ziyeva Nuriza Shuhrat qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, Turkiy tillar fakulteti

E-mail: ruziyevanuriza900@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada O'zbekistondagi ta'lim tizimi, uning rivojlanish tendensiyalari va istiqbollari haqida atroflicha fikr yuritilgan. Ta'lim tizimidagi metodlarning o'rni tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: zamonaviy ta'lim, tendensiya, metod, istiqbol va texnologiya.

MODERN EDUCATION AND PEDAGOGY: DEVELOPMENT TRENDS AND PROSPECTS

Ruziyeva Nuriza Shukhrat kizi

Faculty of Turkic languages, Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

E-mail: ruziyevanuriza900@gmail.com

Abstract. in this article, the education system in Uzbekistan, its development trends and prospects are discussed in detail. The role of methods in the educational system is analyzed.

Keywords: modern education, trend, method, perspective and technology.

Yurtimizda ta'lim va tarbiya tizimini takomillashtirish mamlakat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi, Uning asosida yurt farzandlarining jahon andozalariga mos keluvchi shart-sharoitlarda zamonaviy bilim olishlari va kasb-hunar egallashlari, jismoniy va ma'naviy jihatdan yetuk insonlar bo'lib kamol topishlarini ta'minlash, ularning qobiliyati va iste'dodini namoyon etishi uchun barcha sharoitlar yaratib berish, yoshlarning orzu-umidlarini va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish ularni komil inson bo'lib voyaga yetishiga xizmat qilish, yoshlarning qalbida ona vatanga sadoqat, mehr - muhabbat va fidoyilik tuyg'ularini kamol toptirish kabi ezgu g'oyalari yotadi.

Ushbu g'oyalari amalga oshishi uchun davlatimiz hukumati tomonidan katta sa'y- harakatlar amalga oshirilmoqda. Muhtaram prezidentimiz tashabbusi bilan 29.10.2020yil PF 6097- sonli "Ilm fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi qarorini misol keltirish mumkin. Qarorga ko'ra, ilmiy yo'nalishlarni shakllantirish va ularning samarali faoliyat yuritishini ta'minlash hamda ilmiy maktablar, fan namoyandalari va yetakchi olimlarning sohadagi mas'uliyatini oshirish maqsadida har bir fan yo'nalishlari bo'yicha fan jamiyatlari tashkil qilish [1] kabi ustuvor vazifalar belgilab berilgan

Bilamizki, hozirgi kunda yurtimizda ta'lim tizimi bir qadar tartiblashtirilgan. Ta'lim turlari quyidagilardan iborat:

- Maktabgacha ta'lim va tarbiya;
- Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim;
- Professional ta'lim;
- Oliy ta'lim;
- Oliy ta'limdan keyingi ta'lim;
- Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- Maktabdan tashqari ta'lim.

Ta'lim sohasini rivojlantirish sifatida STEAM metodini qo'llash maqsadga muvofiqdir. STEAM-hozirgi kunda dunyo ta'lim tizimining eng asosiy urf bo'lgan innovatsion metodlardan biri hisoblanadi. Bir qarashda STEAM metodi murakkabdek ko'rinadi, lekin uni alohida ko'rib chiqadigan bo'lsak sodda va aniq ekanligini ko'rishimiz mumkin, ya'ni bu:

S: science- fan

T: technology- texnologiya

E: engineering- muhandislik

A: art- san'at

M: matematika- matematika.

Oddiy so'z bilan aytganimizda zamonaviy dunyoda eng ko'p talab etilayotgan fanlar tizmasidir. Bu metodika ta'limni aralash holda olib borish hamda egallagan bilimlarini hayotga to'g'ri tadbiiq qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. STEAM metodi alohida fanlar tizmasida emas, balki fanlarning umumiy lashgan holda ularning umumiy bog'liqligi ko'rsatib o'rgatiladi.

Ushbu yondashuv o'quvchilarning faoliyatiga bir qancha vazifalarni taqdim etadi, shuningdek bu vazifani bajarishda o'z ijodkorligini namoyon qiladi va ko'nikmalarini hayotda qo'llay oladi. Mazkur tendensiya ham aslida o'quvchilarning fanlarni yaxshi o'zlashtirib, ularga hayotda asqotishi uchun qo'llangan metodikadir. STEAM bolalarda muammolarni keng qamrovli tushunish, tanqidiy fikrlash, dizayn asoslarini tushunish, ijodiy fikrlash hamda ilmiy metodlarni tushunish va qo'llash kabi muhim xususiyat va ko'nikmalarini shakllantiradi.

Albatta talim sohasida juda ko'plab metodlar mavjud. Xo'sh metod o'zi nima? Metod (yunonchadan olingan bo'lib . 'metodos' – bilish yoki tadqiqot yo'li , nazariya , ta'limot) – voqelikni amaliy va nazariy egallash , o'zlashtirish , o'rganish , bilish uchun yo'lyo'riqlar, usullar majmuasi , falsafiy bilimlarni yaratish va asoslash usuli [2] . Metodlardan ko'proq foydalangan holda bolalarni tezroq mavzuni tushunishida, ularning ularning keyingi hayoti uchun tayanch ustun yaratishda pedagog o'z mahoratini metodlar orqali samarali qo'llash bilan o'quvchiga ta'lim - tarbiya beradi.

Metodlardan foydalanish nima uchun kerak degan savolga javob beradigan bo'lsak, bu bolalarga fanlarni o'zlashtirishida ko'maklashish, ularning aqlini charxlab, zexnini oshirishda qo'l keladigan jarayondir. Shu bilan birga o'qituvchi o'quvchilarga mavzuni tez va oson, sodda usulda yetkazib berish uchun yordam beradi.

O'qituvchi turli xil metodlarni qo'llashi mumkin. Masalan: xilma-xil o'yin metodlari, enterfaol metodlari va klaster metodlarini dars jarayonida bolalarga tadbiiq etishi mumkin. Mazkur metod va texnologiyalardan samarali foydalanish maqsadida kutilgan natijalarga erishish mumkin. Bunda o'qituvchi mahorati va darsda qo'llay olish qobiliyati alohida ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish va o'zimizga tadbiiq etish ta'lim unumdorligini oshiradi.

References

1. <https://lex.uz/docs/-5073447>
2. Xusanova D. Metod va metodika haqida tushuncha // Международный научный журнал «Новости образования: исследование в XXI веке». – 2023. – №7(100). – В.336-340.

